



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Iroda Xalimjomova

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu tezis boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritiladi. O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish lozim.

Kalit so'zlar: shaxs, ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so'z, inovatsiya, ijodkorlik, erkin fikrlilik, nutq madaniyati, dars samaradorligi.

Аннотация

Эта статья посвящена эффективной организации занятий по обучению родному языку и чтению в начальной школе. Прежде всего, необходимо повысить грамотность родного языка и чтения при изучении ряда особенностей, таких как правильное чтение, увеличение словарного запаса, обучение широкому мышлению, улучшение речи, сознания.

Ключевые слова: личность, хорошее мышление, доброе дело, доброе слово, новаторство, творчество, свободное мышление, культура речи, результативность урока.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Annotation

This article focuses on the effective organization of mother tongue and reading literacy classes in primary school. First of all, it is necessary to improve the literacy of the native language and reading in the study of a number of features, such as correct reading, increasing vocabulary, teaching broad thinking, improving speech, consciousness. should be able to form

Keywords: Personality, good thought, good deed, good word, innovation, creativity, free thinking, speech culture, lesson effectiveness.

O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish lozim. Fikrini o'stirish, fikrlashga o'rgatish, kelajakka sog'lom fikrli bolani tarbiyalash ona tili va o'qish savodxonligining asosiy vazifalaridan biridir. Ayniqsa, bola fikrining kengayishida sodda so'zlardan murakkab so'zlarga o'tib borishi yosh xususiyatlariga moslab davlat ta'lim standartlari asosida joylanganligi o'ta muhimdir. darslarni to'g'ri va samarali tashkil qila olish o'qish samaradorligini oshiradi, ma'naviy ozuqa olishning yana bir yo'li hamdir. Hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ta'lim sohasidagi tub burilishlar aynan har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlaydigan yosh avlod ta'lim tarbiyasi uchunligi hech birimizga sir emas. Buning uchun ta'lim sifatini oshirish maqsadida „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ va „Davlat ta'lim standarti“ning yo'lga qo'yilishi, boshlang'ich sinflarda ta'limtarbiya masalalariga kuchli e'tibor qaratish va bu yo'lda o'qituvchi, pedagoglar oldiga bir qancha talablar qo'yilmoqda. Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek: „Davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish barkamol inson tarbiyasiga ma'sul o'qituvchilar



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

zimmasiga bugungi kunda rivojlanayotgan jamiyatimiz uchun yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, irodasi baquvvat, o‘z kasbini mukammal biladigan XXI asr kadrlarini tayyorlash mas’uliyatini yuklagan”1, „Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o‘z qobiliyatini o‘z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilanishi, ma’nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir”2. Birinchi prezidentimiz I.Karimovning bu so‘zlaridan mustaqillikka erishganimizdan buyon yoshlarga qanday e’tibor berilayotganligi qanday imkoniyatlar eshigi ochib berilayotganligini ko‘rsak bo‘ladi. Barkamol shaxsni shakllantirish har bir davrning muhim ijtimoiy vazifasi sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Zardushtiylik dinida ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal uning bosh g‘oyasi bo‘lsa, islom ta’limoti g‘oyalaridan esa bilimli bo‘lmoqlikdir. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishda atrof-muhit, o‘ta murakkab xususiyatga ega bo‘lgan munosabatlarning o‘rni katta. Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda bolaning qanday o‘sishi, shakllanishida pedagog mahoratiga 502bog‘liq hisoblanadi. Darsning innovatsion texnologiyalar asosida olib borilishi dars samaradorligini yanada oshiradi. Shuningdek, bir qator metodlar, jumladan: “Aqliy hujum” metodi; “Kalaster” metodi; “Ven diagrammasi” metodi; “Qora quti” metodi;

“B B B” metodi. 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida keltirilgan Kamola Sodiq qizining “Kimni qo‘shni deymiz?” hikoyasini ko‘rib chiqamiz:

KIMNI

QO‘SHNI

DEYMIZ?

Bobo: – O‘g‘lim, qo‘shnimiz Farida xolanikiga chiqib, uy ishlariga yordamlashdingmi?

Temur: – Bobojon, ko‘cha boshidagi Abdullohning buvisini aytyapsizmi? Uylari uzoqda-ku, ularni ham qo‘shni deymizmi?

Bonu: – O‘g‘lim, uyimizning oldi tarafidagi qirq hovli, orqa tarafidagi qirq hovli,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

chap tarafidagi qirq hovli, o'ng tarafidagi qirq hovlining hammasi bizga qo'shni hisoblanadi.

Temur: – Voybo' o'...

Bobo: – Unutma, hozir ham, katta bo'lganida ham mahalladoshlaring bilan ahil bo'l. Ularga yaxshilik qilishdan qochma!

Temur: – Albatta shunday qilaman!

Hikoya birinchi o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi va o'quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

1 Kimlarni qo'shni deymiz?

2 Temurning bobosi aytgan fikrga qo'shilasizmi? Nima uchun?

3 Mahalladoshlar bilan ahil bo'lish uchun nima qilish kerak?

4 Mahallangizdagi odamlarga qanday yaxshilik qilishingiz mumkin?

5 03 Keyin hikoya o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi, so'ngra keyingi topshiriqda aytilganidek: Partadoshingiz bilan biringiz bobo, biringiz bola bo'lib dialogni qayta o'qing. So'zlarni aniq va to'g'ri talaffuz qiling. O'quvchilar baholanadi va rag'batlantiriladi.

Usul va metodlar o'quv jarayoni sifatini hal qilib beradi. O'quvchining ongli va kuchli o'zlashtirishida, faollikning rivojlanishiga ham ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. O'qituvchining metod va usullarni to'g'ri tanlay olishi darsda o'tiladigan mavzuga bog'liqdir. Yangi mavzu bayoni uchun bir metod qo'llansa, uni mustahkamlash, umumlashtirish uchun yana bir metod qo'llaniladi. darsni samarali o'tkazish uchun o'tiladigan metodlar puxta o'ylanishni talab qiladi. „Darhaqiqat, o'quvchi ma'naviyatiga, axloqiga ta'sir qilish, komil inson qilib tarbiyalash uchun badiiy adabiyotni o'qib berishning, o'rgatishning o'zi kamlik qiladi. Bu yo'lda shaxsiy namuna, o'rganganlarini amaliyotda qo'llay olish ham katta ahamiyat kasb etadi” Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon o'qituvchidan ijodkorlikni, erkin fikrlilikni,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

yangi texnologiyalar asosida ish olib borishlikni talab qiladi. unda pedagogik tajribaning yuqori bo‘lishi, muloqot madaniyati, nutq madaniyatining shakllangan bo‘lishi, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatining mavjudligi, bilim, ko‘nikma va malakaning namoyon bo‘lishi, uning pedagogik mahoratga ega ekanligini ko‘rsatadi. Darsning samaradorligi-o‘qituvchining mahoratiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zam Xoliqov „Pedagogik mahorat“ „Tafakkur-Bo‘stoni“ Toshkent-2011, 124- bet
2. Karimov I.A. Barkamol Avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori Toshkent, Sharq nashriyoti-matbaa konserni 1997
- 3 2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi 1-qism B-37 Toshkent – 2021
Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun
- 4 Siddiqova Sh. „Yosh avlod ma’naviy kamolotida badiiy adabiyotning o‘rni“ „Izlanish samaralari“ 2019-y504